



## YANGI O'ZBEKİSTON İSTİQBOLI

### Rozmamatova Mexriniso Xudoynazar qizi

*Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'naliishi 2-kurs talabasi*

Har bir xalqning o'z milliyligi, urchodatlari, qadriyatları, ota-bobolaridan qolgan qadimiy, go'zal an'analari bor.

Chunki millat shunday noyob fazilatlar orqali bir biriga jipslashgan. Oddiygina misol keltirib o'tadigan bo'lsak, har millatning o'ziga xos milliy kiyim-kechaklari, milliy taomlari bor. Millat ahli mana necha yil bo'lsa ham bu nafis ko'ylag-u choponlarni faxr iftixori ila kiyib yurishadi, milliy taomlarini esa hali hamon sevib iste'mol qilishadi. Yoki bo'lmasa qadimda ota-bobolari yashab o'tgan, manzil qilgan makonlarni tez-tez ziyyarat qilib, ularning yo'qolib ketmasligi uchun jon-jahdi bilan kurashadi. Shu emasmi millatga bo'lgan muhabbat, vatanga bo'lgan sadoqat?!

Biz o'zbek millatimiz o'ziga bek xalqimiz. Millatimiz necha yuz ming yillar ilgari paydo bo'lgan. O'zbek xalqi hozirgi farovon kunlari yetishaman deguncha qanchadan qancha sinovlarni yengib o'tgan. Yillar to'zonidan yiqilmasdan, toyilmasdan bizgacha yetib kelgan. Hozirda O'zbekiston deb atalgan mustaqil Respublika bo'lib o'zining nimaga qodir ekanligini butun dunyoga tanitib kelmoqda. Biz bunday ne'matni ko'z qorachig'iday asramog'imiz, har xil yot havflardan saqlamog'imiz darkor. Ayniqsa, hozirgi davrda kelajak avlod uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'limga katta e'tibor qaratmoqda. Masalan, 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan PQ-4884-soni "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish" haqidagi qarorida o'zbek tili grammatikasini isloh qilish, ona tili grammatiksini o'qitishning yangi metodikasini ishlab chiqish haqida, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, pedagogik ta'limda tahsilolayotganlarning amaliyot soatlari ko'paytirish, umumiy o'rta ta'lim mifikalarining 4-sinf bitiruvchilarini fanlar bo'yicha saralash kabi muhim masalalar kiritilib o'tilgan. Bu islohotlarning barchasi biz yoshlarning bilimli, zukko o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishimiz uchundir. Darhaqiqat, hozirgi kunda vatanimiz tinchligi, farovonligi biz yoshlarga ya'ni ulg'ayib kelayotgan kelajak avlodga bog'liq. Shunday ekan biz yoshlar yaxshi o'qib o'rganib kasbimizning malakali va yetuk egasi bo'lib vatan tinchligini saqlashdek buyuk ishga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Bu masalada biz pedagoglar ya'ni bo'lajak boshlang'ich sind o'qituvchilari avvalo vatanga muhabbat tushunchasini bolajonlarning mitti yurakchalariga sodda tarzda tushuntirib, singdirib borishimiz kerak.

Hozirgi kunda zamonamizning jadal rivojlangani sababli barcha darsliklarimizga yangidan yangi o'zgarishlar, zamonaviy ta'lim jarayonlarga moslangan yangi mavzular kiritilgan. Bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida Boshlang'ich sind o'qituvchilarga 1-sinfданоq vatan mavzusi o'quvchilarga sodda samimiyl tilda





tushuntrilib boriladi . Masalan, 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi fanida vatan tushunchasi "Mening oilam" mavzusi orqali tushuntirib beriladi . Mavzu orqali ota-onaga bo'lgan hurmat, aka-singillarga mehr-muhabbat haqida gap boradi. Bo'lajak pedagog sifatida bu mavzu orqali vatan haqida boshlang'ich tushunchani berish juda to'g'ri deb hisoblayman. Chunki vatan oiladan boshlanadi ,oila tinch bo'lsa butun yurt tinch bo'ladi. 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida esa "Mening mahallam " deya vatan tushunchasini yanada kengaytirilib tushuntirilgan .Bu mavzu bo'yicha yana qo'shnichilik an'analari ,mahalladoshlar bir birlari bilan bir yoqadan bosh chiqarib birgalikda mehnat qilishi ,mahallada birov qiynalib qolsa darrov boshqalar yordamga chiqishi,birgalikda hashar qilishi rasmlar asosida tushuntrilgan.Mavzuga doir Kavsar Turdievaning "Mahalla-ota-onsa"degan juda chiroyli, tarbiyaviy she'ri berilgan. Bu qadriyatlarni bolalikdan tushuntirib borilishi juda to'g'ri deb hisoblayman.3-sinf kitobida esa mustaqillik tushunchasini bolaning ongiga singdirish uchun "Mustaqillik maydoni" degan mavzu kiritilgan. Bu mavzu bo'yicha Xudoyberdi To'xtabayevning vatan haqidagi ertagi keltirib o'tilgan . Bir qushchaning o'z uyiga qaytishi haqidagi ertak orqali yozuvchi bolalarga o'z vatanimiz har birimizga barcha chiroyli joylardan avzalliginitushuntirib o'tadi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki hozirgi kunda zamon bilan birga insonlarning ongi ham jadal o'sib bormoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ham avvalgi o'quvchilardan ongi, dunyoqarashi jihatdan ancha oldinlagan . Shu sababli hozirgi kun bolalariga yangidan yangi metodlardan foydalananib dars tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. I.Azimova,K.Mavlonova,S.Quronov,Sh.Tursun."Ona tili va o'qish savodxonligi "1-qism.Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 1-sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent-2021
2. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun. "Ona tili va o'qish savodxonligi "1-qism. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 2-sinf o'quvchilari uchun darslik.Toshkent-2021.
3. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, Z.Ro'zmetova."Ona tili va o'qish savodxonligi "1-qism. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent-2022.
4. Lex.uz sayti.

